



Qoraqalpoq'iston Respublikasi statistika boshqarmasi




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YILNING
YANVAR-APREL OYLARIDA

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug‘urtalash va har xil turdagi vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo‘lganlar soni bo‘yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3699,4** mlrd. so‘mga yetdi. Uning nominal hajmi **593,1** mlrd. so‘mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **108,1** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari



Dastlabki ma’lumotlar


2023- yil yanvar-aprel

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so‘m	2022- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da
Xizmatlar - jami	3699,4	108,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	214,3	121,8
Moliyaviy xizmatlar	875,5	112,4
Transport xizmatlari	930,0	104,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	450,1	102,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	89,5	105,3
Savdo xizmatlari	828,4	107,1
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	82,3	104,5
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	171,4	104,6
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	47,7	106,2
Ijara xizmatlari	61,2	97,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlesh bo‘yicha xizmatlar	110,3	102,9
Shaxsiy xizmatlar	150,0	104,9
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	42,6	140,9
Boshqa xizmatlar	96,2	104,5

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2023- yilning yanvar-aprel oylarida bu xizmatlarning ulushi **25,1 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**23,7 %**), savdo xizmatlari (**22,4 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,8 %**) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

Me’morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo‘lmagan o‘shish qayd etildi, ularning ulushi **1,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari umumiy hajmning **26,9 %** ini tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida me’morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko‘rsatgichga ega bo‘lgan – **0,9 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o‘shishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o‘shishi va ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida yuqori o‘shish me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**40,9 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**21,8 %**), moliya xizmatlarida (**12,4 %**), savdo xizmatlari (**7,1 %**), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**6,2 %**) qayd etildi.

Ijara xizmatlari hajmi (**2,3 %** ga) pasayishi qayd etildi.

Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘shish sur‘atlarini taqqoslash, % da



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etilgan – **37,5 %**. Ijara xizmatlari o‘shish sur‘atlarida pasayish kuzatilgan – **22,8 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel


Info

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **22,4 %** ni tashkil etib, bu **828,4** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **686,1** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **22,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **76,3 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **16,1 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,6 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo ulushi **76,0 %** ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar
(2023- yil yanvar-aprel oylarida)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **875,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **701,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,7** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **22,6** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **173,7** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **12,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **132,3** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,4 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,2 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-aprel oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **82,6 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **15,0 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,4 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2022- y. Yanvar-aprel

2023- y. Yanvar-aprel



Dastlabki ma'lumotlar



2023- yil yanvar-aprel

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **94,4** % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2022-y. yanvar-aprel

2023-y. yanvar-aprel



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,6** % ni tashkil etgan.


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

Info

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblangan **ta‘lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta‘lim sohasidagi xizmatlar



2023- yilning yanvar-aprel oylarida ta‘lim sohasidagi xizmatlar hajmi **171,4** mlrd. so‘mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,6 %** ini tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati **104,6 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel




Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2022- y.
Yanvar-aprel**

**2023- y.
Yanvar-aprel**



Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O‘sish sur‘ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar-aprel

Info

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel


2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **19,5** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

**2022- y.
yanvar-
aprel**

**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

**2023- y.
yanvar-
aprel**



2023- yilning yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **87,1** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **89,3** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3699,4	108,1	117,4
Nukus sh.	1495,6	107,1	113,0
tumanlar:			
Amudaryo	191,0	112,8	107,5
Beruniy	192,1	112,4	107,1
Bo‘zatov	21,4	115,2	110,2
Qorao‘zak	63,3	111,9	112,9
Kegeyli	70,2	110,5	111,3
Qo‘ng‘irot	548,9	100,1	166,7
Qonliko‘l	52,2	110,9	110,7
Mo‘ynoq	46,4	111,8	116,0
Nukus t.	78,6	111,7	111,4
Taxiatosh	92,9	123,2	105,6
Taxtako‘pir	55,5	110,3	113,0
To‘rtko‘l	296,0	110,7	108,7
Xo‘jayli	163,5	111,3	109,5
Chimboy	112,6	110,0	108,8
Shumanay	54,2	110,6	106,2
Ellikqal‘a	165,0	110,3	107,0

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

Info

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2023- yil yanvar-aprel oylarida)



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – **0,6 %** (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – **0,5 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning
o'sishi

1869,3
ming so'm

278,1
ming so'mga

2023- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1869,3** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,6** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1591,2** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,8** % da qayd etilgan.

106,6 %

O'sish sur'ati

